



ANDIJON VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



2021-YIL YAKUNI BO'YICHA

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI FAOLIYATI

Boshlang'ich ta'lim – bu inson hayidagi ilk ta'limning boshlanishidir. Inson hayotidagi birinchi ta'ssurot va bilimlar maktabgacha ta'limda shakllanib, keyinchalik butun umr davomida saqlanib qoladi.

Mamlakatimizda o'sib borayotgan yosh avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarni jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'tsatmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada tokomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or innovatsiyalarni, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini


MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDA 2021-YILDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI FAOLIYATI

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilot (MTT) lari soni 718 tani tashkil etdi. Ulardan 335 tasi (46,7 %) shahar joylarda va qolgan 383 tasi (53,3 %) qishloq joylarda faoliyat ko'rsatadi. MTT larida mavjud o'rinlar soni 133,4 ming nafar bolarni qabul qilishi mumkin.


Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan jami 718 ta MTT laridan (yuridik shaxslar) 544 tasi davlat va qolgan 174 tasi nodavlat MTT lari hisoblanadi.

O'tgan 2017-yil yakuni bo'yicha viloyatda 456 ta MTT faoliyat ko'rsatgan bo'lib, 2021-yilga nisbatan ular soni 262 taga yoki 57,5 % ga ko'paygan.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDA 2021-YILDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI SONI, (birlik)



Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan 718 ta MTT lardan 84 tasi Andijon shahrida va 68 tasi Shahrixon tumanida joylashgan bo'lib, ular viloyatdagi eng yuqori ko'rsatkichni, hamda Xonobod shahridagi MMT lar soni 7 tani tashkil etgan holda eng past ko'rsatkichni qayt etdi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI BOLALAR SONI, (nafar)


Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan 718 ta MTT lardagi tarbiyalanuvchi bolalar soni 2021- yil yakuni bo'yicha jami 131 323 nafarni tashkil etdi. Ulardan 60 915 nafari yoki 46,4 % shahar joylardagi MTT larida va qolgan 70 408 nafari yoki 53,6 % qishloq joylardagi MTT larida tarbiyalanmoqdalar. Jami tarbiyalanuvchi bolalarning 64338 nafari yoki 49,0 % qizlardan iborat.

2021- yil yakuni bo'yicha viloyat MTT larida tarbiyalanayotgan bolalar soni jami 131 323 nafardan iborat bo'lib, 2017-yilga nisbatan ular soni 72 877 nafarga yoki 2,2 barobarga ko'paygan.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI BOLALAR SONI, (nafar)



Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan 718 ta MTT laridagi bolalar soni 131323 nafardan iborat bo'lib, ulardan 17316 nafari Andijon shahrida, hamda 15243 nafari Shahrixon tumanidagi MTT larida tarbiyalanmoqdalar. Ular viloyatdagi eng yuqori ko'rsatkichni qayd etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Xonobod shahriga to'g'ri kelmoqda, yani ulardagi bolalar soni 1912 nafarni tashkil etmoqda.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


ANDIJON VILOYATIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI BOLALARNING GENDER TAQSIMOTI

O'g'il bolalar			Qiz bolalar	
	nafar		nafar	%
51,8	8973	Andijon sh	8343	48,2
51,9	992	Xonobod sh	920	48,1
		tumanlar:		
53,6	3388	Oltinko'l	2931	46,4
52,0	3575	Andijon	3304	48,0
50,5	6339	Asaka	6225	49,5
54,5	4459	Baliqchi	3726	45,5
49,7	2280	Bo'ston	2309	50,3
51,8	2537	Buloqboshi	2364	48,2
48,0	3711	Jalaquduq	4013	52,0
50,3	6114	Izboskan	6046	49,7
53,9	1493	Ulug'nor	1279	46,1
47,1	4068	Qo'rg'ontepa	4571	52,9
50,5	3495	Marxamat	3420	49,5
52,6	8024	Shahrixon	7219	47,4
49,5	4911	Paxtaobod	5014	50,5
49,7	2626	Xo'jaobod	2654	50,3

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI BOLALAR SONI, %

Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan 718 ta MTT larida tarbiyalanayotgan 131 323 nafar bolalardan 2 yoshgacha bo'lganlari 949 nafar, 3 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 26 033 nafar, 4 yoshdagi bolalar soni 28 681 nafar, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar soni 31 673 nafar, 6 yosh va undan yuqori yoshdagi bolalar soni 44 077 nafardan iborat.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDA 3-6 YOSHLI BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BILAN QAMRAB OLINISHI

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha 3-6 yoshi bolalarni MTT lar bilan (yuridik shaxslar) qamrab olinishi 48,5 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari viloyatda 2021-yil yakuni bo'yicha 2052 ta oilaviy nodavlat MTT lari (jismoniy shaxslar tomonidan tashkil etilgan) faoliyat ko'rsatgan. Ularda tarbiyalanayotgan bolalar soni 54 706 nafardan iborat.

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha oilaviy MTT lardagi tarbiyalanuvchi bolalarni qo'shgan holda 3-6 yoshli bolalarni MTT lar bilan qamrab olinishi 68,8 % ni tashkil etdi.




3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi – mazkur ko'rsatkich maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatida turgan 3-6 yoshdagi bolalar sonining mazkur yoshdagi (aholishunoslik statistikasining joriy hisob-kitoblari asosida yuritiladigan ma'lumotlar bo'yicha hisoblangan) umumta'lim muassasalarida o'qiydigan 6 yoshdagi o'quvchilarisiz bolalar soniga nisbatini ifodalaydi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDA 3-6 YOSHLI BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI BILAN QAMRAB OLINISHI, % (yuridik shaxslar tomonidan tashkil etilgan MTT)

Bo'ston	57,9	77,1	75,0
Xonobod sh.	61,0	67,3	65,3
Ulug'nor	46,8	57,3	59,4
Izboskan	49,0	54,9	57,6
Paxtaobod	46,8	53,7	57,0
Xo'jaobod	56,2	48,1	55,9
Shahrixon	40,4	48,3	55,2
Jalaquduq	45,3	54,7	50,0
Andijon sh.	47,6	51,2	49,4
Qo'rg'ontepa	43,4	53,2	49,2
Baliqchi	46,0	43,7	47,9
Marhamat	35,8	47,7	45,1
Asaka	40,4	44,6	43,3
Buloqboshi	36,9	41,7	41,8
Oltinko'l	44,7	47,6	41,2
Andijon	28,0	33,1	30,1

■ 2019-yil ■ 2020-yil ■ 2021-yil




2021-yil yakuni bo'yicha 3-6 yoshli bolalarni MTT larga qamrab olinishi viloyat bo'yicha 48,5 % tashkil etgan holda, bu ko'rsatkich viloyatning Bo'ston tumanida 75,0 %, Xonobod shahrida 65,3 % ga to'g'ri kelib, eng yuqori natijani qayd etdi va aksincha Andijon tumanida bu ko'rsatkich 30,1 % va Oltinko'l tumanida 41,2 % ni tashkil etgan holda viloyat bo'yicha eng past ko'rsatkich deb baholandi.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI PEDAGOG XODIMLAR SONI , (nafar)


Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha MTT larida xizmat qilayotgan pedagog xodimlar soni jami 11 757 nafarni tashkil etdi. Ulardan 11511 nafari yoki 97,9 % ayollardan iborat. Pedagog xodimlarning umumiy sonidan 4035 nafari (34,3%) oliy ma'lumotga, hamda qolgan 7722 nafar xodimlar (65,7 %) o'rta-maxsus ma'lumotga ega.

Pedagog xodimlar soni o'tgan 2017-yil yakuni bo'yicha jami 5429 nafarni tashkil etgan. 2021-yil yakuni bilan ularni taqqoslaganimizda 6328 nafarga ko'payganligini kuzatish mumkin.



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2021-YILDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI PEDAGOG XODIMLAR SONI , (nafar)



Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan MTT larida jami pedagog xodimlar soni 11 757 nafardan iborat bo'lib, ulardan Andijon shahridagi MTT larida 1753 nafar (14,9 %) va Asaka tumanida 1126 nafar (9,6 %) ni tashkil etgan holda viloyatdagi eng yuqori ko'rkatkichni qayd etdilar.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


ANDIJON VILOYATIDA 2021-YILDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI

Maktabgacha ta'lim va tarbiya – bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik va estetik, jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Bunda nodavlat MTT larining alohida o'rne bor.

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha 174 ta nodavlat MTT lari faoliyat ko'rsatgan. 2017- yilga viloyat bo'yicha nodavlat MTT lari soni 5 ta bo'lib, ulardagi tarbiyalanuvchi bolalar soni 228 nafarni tashkil etgan.

Nodavlat MTT soni, (birlik)

Bolalar soni, (kishi)



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

ANDIJON VILOYATIDA 2021-YILDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI

	Nodavlat MTT soni, (birlik)	Tarbiyalanuvchi bolalar soni, (nafar)	Pedagog xodimlar soni, (nafar)
Viloyat bo'yicha	174	17 810	1 805
<i>Andijon sh</i>	<i>27</i>	<i>2448</i>	<i>318</i>
<i>Xonobod sh</i>	<i>2</i>	<i>248</i>	<i>12</i>
<i>tumanlar:</i>			
<i>Oltinko'l</i>	<i>16</i>	<i>1223</i>	<i>133</i>
<i>Andijon</i>	<i>15</i>	<i>998</i>	<i>115</i>
<i>Asaka</i>	<i>11</i>	<i>1286</i>	<i>114</i>
<i>Baliqchi</i>	<i>12</i>	<i>1439</i>	<i>164</i>
<i>Bo'ston</i>	<i>5</i>	<i>443</i>	<i>58</i>
<i>Buloqboboshi</i>	<i>7</i>	<i>720</i>	<i>83</i>
<i>Jalaquduq</i>	<i>14</i>	<i>1503</i>	<i>146</i>
<i>Izboskan</i>	<i>11</i>	<i>1331</i>	<i>118</i>
<i>Ulug'nor</i>	<i>4</i>	<i>200</i>	<i>20</i>
<i>Qo'rg'ontepa</i>	<i>11</i>	<i>800</i>	<i>60</i>
<i>Marxamat</i>	<i>16</i>	<i>2184</i>	<i>170</i>
<i>Shahrixon</i>	<i>12</i>	<i>1484</i>	<i>128</i>
<i>Paxtaobod</i>	<i>6</i>	<i>1008</i>	<i>113</i>
<i>Xo'jaobod</i>	<i>5</i>	<i>495</i>	<i>53</i>

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha 174 ta nodavlat MTT lari faoliyat ko'rsatgan. Ulardan 27 tasi Andijon shahrida, Marxamat va Oltinko'l tumanlarida 16 ta joylashgan bo'lib, ular viloyatda yuqori ko'rsatkichni qayd etgan.

ANDIJON VILOYATIDA 2021-YILDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN OILAVIY NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida boshlangan islohatlarning barchasi ta'lim sohasi bilan uzviy bog'liq. Yetuk, bilimdon, intellektual salohiyati keng bo'lgan zamonaviy kadrlarni tayyorlashda boshlang'ich ta'limning ahamiyati katta. Mamlakatimizda Maktabgacha ta'lim vazirligi huzurida jismoniy shaxslar bilan bir qatorda, jismoniy shaxslar tomonidan tashkil etilgan oilaviy nodavlat MTT lari ham aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha 2052 ta oilaviy nodavlat MTT lari faoliyat ko'rsatgan. Ularda 54 706 nafar bolalar tarbiyalanmoqda. 2020- yilga viloyat bo'yicha oilaviy nodavlat MTT lari soni 929 tadan iborat bo'lib, ulardagi tarbiyalanuvchi bolalar soni 22 933 nafarni tashkil etgan.

Andijon viloyatida 2021-yil yakuni bo'yicha bolalarni MTT lar bilan qamrab olinishi (oilaviy nodavlat MTT larini qo'shgan holda) 68,8 % ni tashkil etdi

2021-yil

Oilaviy nodavlat
MTT lar soni, (birlik)

929

Tarbiyalanuvchi
bolalar soni, (nafar)

22933

2022-yil

Oilaviy nodavlat
MTT lar soni, (birlik)

2052

Tarbiyalanuvchi
bolalar soni, (nafar)

54706



STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOH

Maktabgacha ta'lim tashkiloti – belgilangan davlat me'yorlariga va maktabgacha ta'lim tashkilotiga qo'yiladigan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalash, o'qitish, bolalarga qarab turish hamda ularni parvarish qilishni va unga ta'lim berishga ko'maklashishni amalga oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalar soni – yil oxirida maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatida turgan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar soni.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning joylar bilan ta'minlanganligi – mazkur ko'rsatkich maktabgacha ta'lim tashkilotlari joylarining ulardagi bolalarga nisbatini ifodalaydi. Taqqoslama tahlil uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 100 joyga to'g'ri keladigan bolalar soni to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi.

1-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi mazkur ko'rsatkich maktabgacha ta'lim tashkilotlari ro'yxatida turgan 1-6 yoshdagi bolalar sonining mazkur yoshdagi (aholishunoslik statistikasining joriy hisob-kitoblari asosida yuritiladigan ma'lumotlar bo'yicha hisoblangan) umumta'lim muassasalarida o'qiydigan 6 yoshdagi o'quvchilarisiz bolalar soniga nisbatini ifodalaydi.



PRESS-RELIZNITAYYORLASH UCHUN MAS'UL:



Andijon viloyati statistika boshqarmasi



Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Manzil: Andijon shahar Milliy tiklanish ko'cha-36 a



Телефон : (74) 224-82-69



www.andstat.uz

